

BOLALAR FOLKLORIDA O'YINLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.*Mirzayeva Komila Sheraliyevna**Termiz ixtisoslashtirilgan**san'at maktabi o'qituvchisi.**Madaniyatshunoslik va nomoddiy**madaniy meros ilmiy tadqiqot**instituti mustaqil izlanuvchisi.***Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'zbek bolalar folklori va an'anaviy xalq o'yinlarining yosh avlod tarbiyasidagi o'rni hamda ularning pedagogik-psixologik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ular orqali yosh avlodda qadriyatlar, jamoaviylik va mehnatsevarlik ko'nikmalari shakllanishi haqida ma'lumotlar berilgan. Tadqiqotda o'yinlarning bolani ijtimoiy muhitga moslashtirish, intellektual salohiyatini oshirish, jismoniy va axloqiy fazilatlarini shakllantirishdagi funksional vazifalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: bolalar folklori, xalq o'yinlari, milliy qadriyat, etnopedagogika, jamoaviy tafakkur, ijtimoiy moslashuv, intellektual rivojlanish.

Abstract

This article scientifically analyzes the role of Uzbek children's folklore and traditional folk games in the upbringing of the younger generation, as well as their pedagogical and psychological characteristics. Through them, information is provided about the formation of values, teamwork and hard work skills in the younger generation. The study highlights the functional tasks of games in adapting a child to the social environment, increasing his intellectual potential, and forming his physical and moral qualities.

Keywords: children's folklore, folk games, national value, ethnopedagogy, collective thinking, social adaptation, intellectual development.

INTRODUCTION

Zamonaviy pedagogika va etnopedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri — yosh avlodni milliy qadriyatlar va xalq og'zaki ijodi namunalari asosida komil inson qilib tarbiyalashdir. Bolalar folklori va an'anaviy o'yinlar asrlar davomida xalqning pedagogik tajribasini, dunyoqarashini va axloqiy me'yorlarini o'zida mujassam etgan ma'naviy meros hisoblanadi. Ular shunchaki ko'ngilochar vosita bo'lmay, bolaning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy kamolotini ta'minlovchi universal pedagogik tizimdir.

O'zingizga ma'lumki, bolalarning kattalar, yerga ursa ko'kka sapchiydigan koptokka o'xshatishadi. Chunki bolalar biror daqiqa ham harakatsiz jim o'tirolmaydi.

Bolalar doimo o'yin ishqibozi, o'yinqaroqdirlar. Aslida bolalikning eng aziz, o'ziga xos tomonlari ham shunda-da! Jmayyatga, odamlarga foydaasi tegadigan, dunyoga mashhur olimu, yozuvchilarning bolalikda erga ura ko'kka sapchiydigan o'yinqaroq bo'lganliklari bejiz emas. Bu hol ularda ijodiy tafakkurning o'sishi uchun benihoya katta ahmiyatga ega.

Quyundayin charx urardik doim to'zonda,
Chang neligin bilmas edik o'sha mahali,-

Degan edi Abdulla Oripov. Shijoat ,qiyinchiliklar oldida esankrab qolmaslik, bularning barchasi o'yinlar bilan bog'liq. Qadimda o'yinlarning turlari juda ko'p bo'lgan. Ot o'yin, do'ppi o'yin, hammompish, tosh o'yin, chillak o'yin, yong'oq o'yin, qurmatayoq, ko'chmak o'yin, jona o'yin, varrak o'yin kabilar. Qadimiy bolalar o'yinlari va umuman folklori to'g'risida G.Jahongirov mazmunli kitob yozgan. U kishining qayd qilishlaricha bugungi bolalar o'yinlarining ildizi juda uzoq va qadim zamonlarga borib taqaladi. Bobokalonlarimiz Maxmud Qoshg'ariy, Abu Ali ibn Sino asarlarida ham bolalar ijodkorligi, folklor o'yinlariga taaluqli ma'lumotlar juda ko'p uchraydi. Jumladan, "Devonu-lug'otit turk" kitobida o'yinlarning tur va yo'nalishlari haqida qiziqarli ma'lumotlar bor. Keying davr adabiyotlariga nazar solsak G'afur G'ulomning "Shum bola" asarida bolalar o'yinlari to'g'risida juda qiziqarli va qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Ana shunday qadimiy unitilayozgan o'yinlardan biri hammompish o'yini bo'lib, asosan yoz faslida bajarilgan. Hammompishni shartli ravishda "qurilish o'yini" deb atash mumkin. Uning o'z nomi o'zi bilan; hammom, pish. Ya'ni, bolalar uyilgan tuproqdan bir doppi shaklidagisini ajratib olib, rosa urib, pishitib, xuddi hammomning gumbazi qiyofasiga keltiradilar. Bu jarayon suv ishlatmay ham suv berib iylash bilan xo'l shaklda bajarilishi ham mumkin. Iylab, pishirilgan "hammom" biro z quritilgandan keyin, o'z vazifasiga moslanib, "eshigi ochiladi", so'ng ehtiyotkorlik bilan bu xom "bino"ning ichidan tuprog'I olinib boshlaydi. Gap shundaki, tuprog'I ohista to'la olinib tashqariga chiqarilgan "Hammom" yiqilib tushmay, o'z shaklini saqlab qolsa, bu o'yinchining ishi pishiq bo'lganligi ya'ni, "hammom" ning "pishgan" ligini bildiradi. Ko'pda hammomi pishmagan bolalarning hammompishlari o'yilayotganda , yarimiga bormayoq yorilib, o'yilib tushadi. Qurilish boshqatdan boshlanadi. Shu tariqa hammompish o'yini davom etaveradi. Bu o'yinda bolaning quruvchi, muhandislik, hisob-kitob qila olish qobiliyati rivojlantiriladi. Mehnatga layoqat tobora yuksalib boreveradi.

Bolalar o'yinlari qaysi shakl, mavzu, yo'nalishga ega bo'lmasin, loy-tuproq bilanmi, cho'p bilanmi, ipu arqon bilanmi, po'stagu mato bilanmi, qaysisi bo'lsa ham bolani hayotga turmush ikir-chikirlariga, ro'zg'or ishlariga tayyorlashda o'ziga xos hunar maktabi rolini o'tagan.

Bolalar o'yinlari o'ziga xos asarlardir. Ular muayyan ijodiy yo'nalishga ega bo'lib, ularning o'z ma'nosi, qurilmasi mavjud. Masalan bolalar to'planishidan avval o'yinga chaqiriladi. O'yin boshlash uchun esa chek yoki qur'a tashlanadi. Ikki-uch ijodiy musobaqa guruhiga bo'linadi. So'ng muayyan o'yin qonun-qoidalar asosida boshlanadi. Bu chillak, do'ppi, qo'shimboshi, to'p, tosh va lapar o'yinlaridir. Albatta o'yinlarning boshi bo'lganidek, ularning oxiri, chegarasi ham border. Qadimdan qolgan; "uy-uylikka, tepa to'ylikka!" xitob-xotima bu- o'yinning yaxshi axil va inoq, foydali yakunlanganligidan dalolat beradi. O'yinlarning maqsad yo'nalishlari ham har xil. Ular sanoqni o'rgatish, tilni burro qilish, nafas yo'llarini rivojlantirish, nutq boyligini oshirish va hokazo maqsadlarga qaratilgan bo'ladi. Quyidagi misollar ham mana shunday turli maqsadlarni ko'zlagan bolalar o'yinlari jarayonida aytiladigan qo'shiq o'yinlaridir.

Bir-ikki, o'n olti,
O'n olti deb kim aytdi?
O'n olti deb men aytdim.
Ishonmasang sanab ko'r..

(Bolalar sanaladi)
Hakkalakam, dukkalakam,
Chori amal, beri amal,
Qayda edi tog'da edi.

Tog'man, zuvman...
(Chillakda zuvullanadi)

Chori chamber

Bari anbar

Ona qizi qayda?

Ola-bula joyda

(ayb ish qilgan aniqlanadi)

Biz biz edik ,

O'ttiz ikki qiz edik

Shu o'yinni bilolmay

To'rt tomonga to'zidik.

Olimlarning takidlaashicha, sanamalar faqat o'zbek bolalari orasida emas, umuman turli xalq folklorida eng ko'p tarqalgan janr hisoblanadi. Jumladan, ruslarda "schitalka", tojiklarda "shumurak", "turkmanlarda sanavoch", tatarlarda "sanashu" deb ataladi. Ularning ko'pchiligini yuqorida keltirilgan misollar kabi she'riy tarzda ijro etiladi.

Shunday qilib sanama va shu kabi bolalar folklorining boshqa tarkibiy qismlari yosh avlodning ulg'ayishida boshqa janrlar kabi estetik, ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyat kasb etar ekan..

Kattalarning, aqliy barkamolligi, aqliy barkamolligi, hozirjavobligini namoyish qiluvchi soʻz oʻyinlari bolalar folkloriga ham xosdir. Ayni paytda qoʻshiq-oʻyinlar, topishmoq-oʻyinlar, tez aytish oʻyinlar, sanoq oʻyinlar ham qadimgi bolalarning sevimli mashgʻulotlari hisoblanib kelingan.

METHODOLOGY

Tadqiqot jarayonida etnopedagogik tahlil, qiyosiy-pedagogik yondashuv hamda bolalar psixologiyasining rivojlanish qonuniyatlariga tayanildi. Oʻzbek xalq oʻyinlarining tarkibiy qismlari (sanamashoqlar, aytishuvlar, rolli harakatlar) ularning tarbiyaviy funksiyalariga koʻra tasniflandi.

NATIJALAR VA TAHLIL

Ilmiy tahlillar shuni koʻrsatadiki, bolalar folklori va oʻyinlarining tarbiyaviy mohiyati kompleks xarakterga ega boʻlib, quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Intellektual va nutqiy rivojlanish. Bolalar folklorining lirik janrlari tez aytishlar, topishmoqlar, sanamashoqlar bolaning nutq apparatini rivojlantiradi, lugʻat boyligini oshiradi va mantiqiy fikrlashini faollashtiradi. Sanamashoqlar orqali bolalarda ilk matematik tasavvurlar hisoblash, ketma-ketlik va diqqatni jamlash koʻnikmalari shakllanadi.

2. Jismoniy kamolot va chidamlilik sogʻlomlashtirish funksiyasi "Oq terakmi, koʻk terak", "Arqon tortish", "Chavgon" kabi harakatli xalq oʻyinlari orqali shakllanib yuqori dinamikaga ega boʻladi. Ular bolaning tayanch-harakat tizimini mustahkamlaydi, chaqqonlik, tezkorlik, epchillik va jismoniy chidamlilik kabi hayotiy zarur koʻnikmalarni rivojlantiradi.

3. Axloqiy-estetik tarbiya va jamoaviylik xislatlarini rivojlanishida xalq oʻyinlari alohida xarakterga ega boʻlib, aniq qoidalar asosida boshqariladi. Bu jarayonda bola: Jamoa manfaatlarini oʻzidan ustun qoʻyishni; Oʻzaro koʻmaklashish va doʻstlik tuygʻularini; Adolat, halollik va oʻyin qoidalariga boʻysunish hamda intizom madaniyatini oʻzlashtiradi.

4. Rollarga boʻlinish va mehnat koʻnikmalari "hammompish", "sanama", "ekin ekish", "kelin-kelin", "xola-xola" kabi syujetli-rolli oʻyinlar orqali bolalar kattalar dunyosini, turli kasb-kor va ijtimoiy munosabatlarni imitatsiya (taqlid) qiladilar. Bu ularning tasavvur olamini kengaytiradi va ijtimoiy hayotga, mehnat faoliyatiga moslashishini osonlashtiradi.

XULOSA (CONCLUSION)

Har bir taqraqqiy etgan, madaniyatli xalqning oʻz tili, urf-odati, adabiyoti, osori-atiqalari anʼnaviy moddiy va maʼnaviy boyliklari boʻladi, Oʻzbek xalqi ham dunyodagi eng qadimiy madaniy xalqlardan biri sifatida mana shunday xazinaga ega. Bu bilan biz haqli ravishda faxrlansak arziydi. Buning uchun oʻsha qadimiy madaniyatini, urf-odatni bilishimiz, saqlashimiz va keying avlodlarga ham yetkazishimiz insoniy burchimizdir.

Shuni unutmaslik kerakki, ming yillar davomida shakllangan urf-odat, marosim, adabiyot, san'at muallaq holda, o'zga xalqlardan bekitiqcha paydo bo'lib, rivojlanmagan. Aksincha, biz bilan qadimdan yonma-yon, jon qo'shni sifatida hayot kechirib kelayotgan qardosh qozoq, qirg'iz, turkman, tojik va ozarbayjon xalqlarining bevosita ishtiroki, hamrohligida yaratilgan, taraqqiy topgan. Xatto jahonning ko'plab boshqa xalqlari vakillarining ham bu qadimiy madaniyatning shakllanishida muayyan xissalari bor. Bolalar folklori va xalq o'yinlari — yosh avlod sotsializatsiyasini ta'minlovchi hamda milliy o'zlikni anglatuvchi eng samarali etnopedagogik vositadir. Globallashuv sharoitida ushbu o'yinlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimiga tizimli ravishda integratsiya qilish, bolalarning intellektual va jismoniy salomatligini asrashda muhim ahamiyat kasb etadi.. Bolalar folklori va xalq o'yinlari — yosh avlod sotsializatsiyasini ta'minlovchi hamda milliy o'zlikni anglatuvchi eng samarali etnopedagogik vositadir. Globallashuv sharoitida ushbu o'yinlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimiga tizimli ravishda integratsiya qilish, bolalarning intellektual va jismoniy salomatligini asrashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar folkloridagi o'yinlar bolalar tarbiyasiga, talaffuz ko'nikmlarini oshirishga naqadar etibor bilan munosabatda bo'lganligini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. M.Sattor. O'zbek udumlari Toshkent; Fan.1993.
2. O.Safarov O'zbek bolalar poetik folklori.-Toshkent; O'qituvchi. 1975.
3. Galiyev Sh. O'zbek bolalar o'yin folklori. Toshkent, Fan. 1998. 10-bet
4. Usmonxo'jayev T.S, Rahimov M.M, Abdiyev A.N. O'zbek xalq harakatli o'yinlari. Toshkent, O' qituvchi. 2004
5. Жигульский К. Праздник и культура. Москва, 1995, ст. 33.
6. G'. Jahongirov. Bolalar folklori. Toshkent. O'qituvchi. 1975.